

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70310201 – Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar  
magistratura mutaxassisligining*

***MALAKA TALABI***

**Toshkent - 2024**

**O‘zR OTFIV**  
**Buyruq № 277**  
**2024 yil “01” 08**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2024-yil “01” 08 dagi 277-sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1 Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari .....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	4
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>7</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>8</b>
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>9</b>

## 1. Umumiy tavsifi

70310201-Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 1-yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 70310201-Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

70310201-"Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar" mutaxassisligi xalqaro munosabatlar sohasini rivojlantirishga, tashqi siyosat istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini hamda siyosiy bilimlar tizimi bilan bevosita aloqador bo'lgan Zamonaviy jahon siyosatida mintaqaviy tadqiqotlar, Zamonaviy xalqaro siyosatning transformatsiya muammolari, Xalqaro Munosabatlarda axborot texnologiyalari, Diplomatiyada sun'iy intellekt, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo va Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosati, O'zbekiston Respublikasi yangi tashqi siyosiy strategiyasi bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy faoliyatni o'zida qamrab oladi.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy, ilmiy- texnologik, harbiy-siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-gumanitar, madaniy, mafkuraviy jarayonlar yuzasidan hamda mintaqaviy va milliy xavfsizlik masalalari doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borishi va ushbu faoliyatni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, diplomatiyasi va xalqaro munosabatlari sohasida faoliyat olib borish qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usul, metod va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat sohasida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

#### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Diplomatik servis xizmati, Jahon axborot agentligi va Diplomatik kurslar;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, siyosiy partiyalar, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarining xalqaro boshqarma va bo'limlari;

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy hamda professional ta'lim muassasalari va texnikumlari;

arxivlar, qo'lyozma fondlari, axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ommaviy axborot muassasalar, turli tadbirkorlik subyektlari va boshqalar;

ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Diplomatik servis xizmati, Diplomatik kurslar;

tizimli tahlil va optimal qaror qabul qilish jarayonlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlaridagi boshqaruv jarayonlari;

xalqaro, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, o'z sohasining asosini kompleks anglashda tizimli tahlilni qo'llash jarayonlari;

diplomatik va xalqaro munosabatlarda faoliyat olib boruvchi davlat boshqaruv tizimi organlari va idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro tashkilotlar, milliy va xalqaro iqtisodiy subyektlar, ta'lim, ilmiy tadqiqot va ilmiy tahliliy muassasalar, milliy va xalqaro OAV, ilmiy-tahliliy nashrlar.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va texnikumlarda)*
- *ekspert-tahliliy;*
- *loyihalar boshqarish;*
- *konsalting xizmati*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar**

70310201-*"Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar"* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy va amaliy natijalarni olish va tahlil qilish; yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzusi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar yig'ish;

mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tekshirish institutlarida mustaqil izlanuvchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

turli darajadagi tadbirlarda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlarni mantiqiy izchil tahlil etishda ishtirok etish;

umumnazariy modellar hamda turli yondashuvlarni qo'llagan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

tahlil va monitoring olib borish qobiliyatini rivojlantirish va uning asosida xulosa va tavsiyalar ustida ishlash, tahlil natijalarini anglash, baholash va tushuntirib berish, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va prognozlash;

kasbiy faoliyatni tizimli yondashuv asosida rejalashtirish, tashkil qilish va amalda qo'llash;

gumanitar fanlar sohasida fundamental, amaliy va ekspert-tahliliy tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy usullaridan foydalanish;

axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda tahliliy hisobotlar tayyorlash; ijrochi yoki turli darajadagi rahbar sifatida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borish;

davlat manfaatlariga javob beridagan milliy va amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarida qatnashish va boshqarish;

turli ilmiy yondashuvlar hamda ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlarning innovatsion ilmiy uslublaridan tizimli foydalanish;

xalqaro munosabatlar va jahon siyosatini tadqiq qilishda innovatsiyalardan foydalanish;

xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning asosiy muammolari dinamikasini empirik o'rganish va O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga tayangan holda ilmiy asoslab berish;

jahon siyosatining zamonaviy tendensiyalarini tizimli o'rganish, ularning o'zgarishini prognozlash va unda O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni va rolini tushunish;

jahon iqtisodiy, moliyaviy, geosiyosiy, madaniy va g'oyaviy jarayonlarining o'zaro aloqasini tushunish, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash;

axborot oqimlaridan unumli foydalanish, ulardan muhim fakt va hodisalarni ajrata olish va ularni maqsadga muvofiq umumlashtira bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

kasbiy muloqotlar orqali amaliy aloqalarni o'rnatish usullarini bilish;

kasbiy faoliyat natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni ola bilish;

kasbiy qobiliyatlardan tadqiqot ishlarini tashkil qilishda foydalanish;

nostandart vaziyatlarda faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish;

amaliy siyosat masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish;

xodimlar ishini tashkil qilish va boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilish;

jamoalar bilan konstruktiv faoliyat olib borish, guruhda ishlash va guruh ishini boshqarish;

ish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish;

o'z kasbiy va shaxsiy faoliyatini tanqidiy baholash;

zamonaviy jamiyatning rivojlanishida axborotni tahlil qilish, uni davlat va jamiyat hayotidagi konstruktiv va destruktiv rolini aniqlash, uni yaratish va uzatishning texnologik imkoniyatlarini hamda axborot xavfsizligining asosiy talablarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Pedagogik faoliyatda:**

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o'rta maxsus ta'lim tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib no'ananaviy o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalardan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyatda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qila borish, metodik birlashmalarda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunida fanning o'rnini belgilay olish va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda ma'ruzalar qilish va differensial ta'limni yo'lga qo'ya olish, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yuritish;

fanlarni o'qitishda namunaviy innovasion-texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Ekspert-tahliliy faoliyatida:**

Davlat organlarida, davlat va nodavlat xalqaro muassasalarda, ilmiy tadqiqot va tahliliy muassasalarda tahliliy va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

tizimli fikr yuritish, O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, muammoning optimal yechimini izlash va tatbiq etish;

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro munosabatlar va xavfsizlik muammolari kompleks yo'nalishda tizimli tahlilni qo'llash;

xalqaro munosabatlar va jahon siyosati masalalari bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borish;

tahliliy va ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli yondashuv asosida olib borish;

konsalting xizmati ko'rsatish;

yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

**Loyihalarni boshqarish faoliyatida:**

Loyihalar bo'yicha tashabbus ko'rsatish, ularni rejalashtirish, shakllantirish, boshqarish va baholashni bilish;

loyihalar dasturini tashkil qilish va ijro etish;

xalqaro aloqalarni o'rnatishga kasbiy yondashish;

kasbiy faoliyatda huquqiy-normativ hujjatlardan foydalanish;

nostandart yechimlarni topa olish va turli yechimlardan eng maqbulini ajrata olish;

axborot tizimlarida axborot bilan ishlay olish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Konsalting faoliyatida:**

siyosiy tendensiyalar va jamoatchilik fikrini batafsil tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish;

milliy va xalqaro siyosiy vaziyatni tahlil qilish, biznes va davlat tuzilmalari uchun xavf va imkoniyatlarni baholash;

islohotlar bo'yicha tavsiyalar berish orqali davlat siyosatini ishlab chiqish va baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

davlat tashqi siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, gumanitar fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**Kasbiy kompetensiyalar:**

dunyoqarash bilan bogʻliq tizimli bilimlarga ega boʻlishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-siyosiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, maʼnaviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan oʻz fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol gʻoyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega boʻlishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va oʻz kasb faoliyatida foydalana bilishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda maʼnaviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

axborot yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, oʻz kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati mutaxassisligi boʻyicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega boʻlishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida ilmiy tassavvur hamda eʼtiqodga, oʻzini jismoniy chiniqtirish uquv va koʻnikmalariga ega boʻlishi;

intellektual, madaniy, maʼnaviy, jismoniy va kasbiy oʻz-oʻzini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega boʻlishi va bu qobiliyatni amalda qoʻllay olishi;

ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

fikrlash madaniyatini egallagan boʻlishi, ogʻzaki va yozma nutqini asoslangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega boʻlishi;

egallangan tajribani tanqidiy koʻrib chiqish qobiliyati, zarur boʻlganda oʻz kasbiy faoliyatining turi va xarakterini oʻzgartirishi;

bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida jamiyatning rivojlanishidagi axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunishi, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglashi, axborot xavfsizligining asosiy talablariga, yaʼni davlat sirini himoya qilish talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega boʻlishi;

internet tarmogʻidan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega boʻlishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash koʻnikmalariga ega boʻlishi;

ikkita xorijiy tilni erkin soʻzlashuv darajasida egallagan boʻlishi;

kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qoʻllash ega boʻlishi lozim.

**3. Amaliyotlarga qoʻyiladigan talablar**

Ilmiy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uygʻunlashtirish, tegishli amaliy koʻnikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.



**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, inson resurslarini boshqarish, demografiya, demografik jarayonlar, demografik tahlil, aholi soni va uning tarkibi, demografik prognozlashtirish, demografik siyosat, demografik konsepsiyalar va demografik qonuniyatlar, demografik sig'im, demografik salohiyat, ish o'rinlari, mehnat resurslari va uning balansi, aholining ish bilan bandligi, ishsizlik, mehnatni tashkil etish, ilmiy boshqarish, axborot- kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**KELISHUV VARAG'I**

**ISHLAB CHIQUILGAN:**

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**

Rektor  S.S. Safoyev

2024-yil « 5 » 06

M.O'.

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirligi**

Vazirning birinchi o'rinbosari

 B.J. A'loyev

2024-yil « 6 » 06

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  M.R. Boltabayev

2024-yil « 8 » 06

M.O'.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti**

Rektor  I.U. Madjidov

2024-yil « 7 » 06

M.O'.

**Markaziy Osiyo xalqaro instituti**

Direktor  J.A. Vahobov

2024-yil « 7 » 06

M.O'.

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tomonidan  
70310101- Amaliy siyosatshunoslik magistratura mutaxassisligi bo'yicha  
tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiquvchilar va  
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

2024-yil “ 8 ” 06

Biz quyida imzo chekuvchilar – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori S.S.Safoyev, Tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari B.J.A'loyev, Markaziy Osiyo xalqaro instituti direktori J.A.Vahobov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov birgalikda JIDUda ishlab chiqilgan malaka talablari mazmuni bilan tanishtirilib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70310101- Amaliy siyosatshunoslik**

**70310201 – Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar**

magistratura mutaxassisliklari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora- tadbirlari to'g'risida”gi PQ-330-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyundagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3795-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli Farmonlari, 2019-yil 1-iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-sonli qarorlarida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-avgustdagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining iqtisodiy-tahliliy faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 453-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 470-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 9-yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi “2020/2021-o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida”gi 357-son buyrug'i, 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli qarori, YUNESKO tomonidan joriy etilgan “Ta'limning xalqaro


standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari” (TXSK-S 2013), hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 35-2021-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlangan malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste’molchilari bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o‘tkazilib kelishildi.

Yuqoridagi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.


O‘zbekiston Respublikasi

Tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari  B.J.A'loyev

O‘zbekiston Milliy universiteti  
rektori

 I.U.Madjidov

Markaziy Osiyo xalqaro instituti  
direktori

 I.A.Vahobov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
rektori

 S.S.Safoyev